

LEKSIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR, ULARNING MA'NOLARI VA ULARNING QO'LLANISH XUSUSIYATLARI

Abdirazakova Zilola Kulmurotovna
Samarqand davlat chet tillar instituti
1 bosqich tayanch doktoranti
zilola_abdirazakova@mail.ru

Annotatsiya

Leksemaning mazmun jihati ancha murakkab bo'lib, uning asosini leksik ma'no tashkil etadi. Frazeologizmning mazmuni, shakllanishi, tuzilishi va tarkibi jihatidan leksemadan farqlanadi. Lekin frazeologizmlarning hosil bo'lishi esa leksikaga bog'liq.

Kalit so'zlar: leksema, leksikologiya, frazeologiya, frazeologik birlik, ma'no, til, o'zbek tili, ko'chma ma'no, so'z, ibora, asl ma'no, tasavvur.

Abstract

The content aspect of the lexeme is very complex, and the lexical meaning is the basis of it. Phraseologism differs from a lexeme in terms of content, formation, structure and composition. but the formation of phraseology depends on the lexicon.

Key words: lexeme, lexicology, phraseology, phraseological unit, meaning, language, uzbek language, figurative meaning, word, phrase, original meaning, imagination.

Til - ijtimoiy hodisa bo'lib, insonlarga fikrlash quroli bo'lib xizmat qiladi. Har bir til - har bir jamoaning boyligi hisoblanadi. Chunki jamoa muloqot uchun ushbu tildan foydalanadi. O'sha tilni qo'llaydigan jamoa yoki yurtning nomi o'sha bilan ataladi. Dastlab og'zaki muloqotni ta'minlaydi va keyinchalik yozma shaklda namayon bo'ladi.

Leksema - asosiy, birlamchi til birligi bo'lib, til qurilishining lug'at boyligiga mansub, shunga ko'ra lug'at birligi, leksik birlik deb ham yuritiladi¹.

Frazeologik birliklar sintaktik va semantik ajralmas so'z birikmalaridir. Unda grammatik kategoriyalar va ifoda tarkibiy qismlarining davomiyligi xosdir. So'z va frazeologizmlar bir xil emas, balki kesishgan tushunchalardir. Ba'zi bir belgilar so'zga va frazeologik birliklarga ham xos, yoki alohida o'zlarigagina xos, ya'ni so'zning o'zigagina xos va frazeologik birliklarning o'zigagina xos belgilar ham mavjud.

So'z shakl va ma'no (leksik va grammatik) ma'noga ega. Hissiy- baholovchi belgilar bor/yo'qligini inobatga olib leksik ma'nolar neytral va konnatativga bo'linadi.

¹ Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik) - Toshkent Universitet 2006, 22-bet

Masalan: Neytral – Qalam, konnatativ – qalamcha, qalamgina. Konnatativ qo‘shimcha – bu gapiruvchining nutq mavzusiga munosabatining ifodasi. Bu so‘zning leksik ma‘nosi uchun zarur qo‘shimcha bo‘lib hisoblanmaydi. Frazеologik birliklarda esa konnotativ component katta ahamiyatga ega. Frazеologizmlar ko‘chma ma‘noga ega bo‘lganligi uchun metafora asosida shakllanadi. Frazеologik birliklarning ma‘nosi haqidagi farqlar frazeologik birliklar uchun leksik ma‘noni frazeologik ma‘nolarga almashtirishga olib keladi.

Leksika narsa-hodisa, fakt, voqea, jarayonlar nomini ifoda etsa, frazeologik birliklar narsa-hodisalar, voqeliklarni atash bilan birgalikda, shaxsning his-hayajon, tuyg‘u, psixik holati, fazilatlarini ifoda etadi².

Ma‘noning yaxlitligi, tarkibining murakkabligi, grammatik barqarorlik, tarkibining barqarorligi, so‘zga muqobilligi va semantik transformatsiyasi kabi belgilari frazeologik birliklarni boshqa til birligidan farqlaydi.

Frazеologizmlar nutqqa tayyor holda olib kiritiladigan, semantik jihatidan so‘zga muqobil, struktura va ma‘no jihatidan birikma yoki gapga teng, komponentlaridan birining yoki umumiy birikmaning ko‘chma ma‘nosi asosiga qurilgan turg‘un birikmalardir³.

Leksema leksik birlik hisoblanadi va shu nuqtai nazardan, tilning lug‘at tarkibidagi so‘zlarni shu nom bilan atash mumkin. Ammo, so‘zning grammatik shakli tavsifini berishda so‘z tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadigan ko‘rinadi⁴.

So‘z tilning ikki tomonlama birligini ko‘rsatadi, ya‘ni shakl va ma‘noga ega.

Shakl (ifoda mazmuni) – og‘zaki nutqda tovushlar orqali ifodalanishi, yozma nutqda harflar bilan ifodalanishi. So‘zning ifoda mazmuni leksema deb ataladi. Leksema bu- mavhum birlik bo‘lib, so‘zning shakl va ma‘nolar yig‘indisini ifodalaydi. Barcha har bir so‘z ifoda mazmuni uchun leksik ma‘no bir xil. Ifoda mazmuni va ifoda shakliga ko‘ra assimetrik holat kuzatiladi.

Leksema, birinchi voqelikni nomlash uchun hosil qilinadi, keyin unga ma‘lum mazmun birlashtiriladi. Masalan, soch - leksemasi kishi ta‘na a‘zosi, uning bosh ma‘nosi “peshonaning yuqori qismidan boshlanib boshni qoplab turadigan zich o‘sadigan tuklar” deb ta‘riflanadi.

Leksik va frazeologik birliklar, ularning ma‘nolari va ularning qo‘llanish xususiyatlariga qarab turli turdagi strukturaga ega bo‘ladi.

Aslida, leksik va frazeologik ma‘noning farqi so‘z birikmalari va ularning qo‘llanish xususiyatlariga bog‘liqdir. Leksik ma‘no bitta so‘z yoki so‘z birligining

² Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologiyasi Toshkent 2019 10-bet.

³ Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologiyasi Toshkent 2019 12-bet.

⁴ X. Xayrullayev. Tilshunoslik nazariyasi. Darslik. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 82 bet.

individual ma'noga ega bo'lgan birlik bo'lib, frazeologik ma'no esa bir nechta so'z birliklarining birligida o'zgaruvchan va ijtimoiy ma'noni ifodalaydi.

Leksik birliklar, ma'nolari o'zbek tilining o'z xususiyatlariga ega bo'lgani uchun tilshunoslar uchun muhim bir qism bo'lib hisoblanadi. Ular, turli so'zlar yoki so'z birikmalarning birarada ishlatilishi yoki olingan so'zlar orqali tuzilgan so'z birikmalari bo'lib, turli mavzularda bo'lishi mumkin.

Frazeologizmlar faqatgina lisoniy hodisa bo'libgina qolmay, ular ijtimoi-tarixiy davrning mahsuli deya olamiz, chunki frazeologizmlarning paydo bo'lishi, shakllanishi, ifodalanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. O'zbek tili frazeologiyasi ham davr o'tishi bilan tilimizga boshqa tillarning leksemalarining o'zlashishi natijasida frazeologizmlarimizning ham tarkibida o'zlashgan so'zlarning qo'llanilishiga va o'zlashishiga olib keldi. Frazeologizmlar ham leksika kabi tilning fonetik, leksik-semantik, grammatik talablarida bo'sunadi. Har bir adabiy tilning lug'at tarkibi va frazeologik boyligi to'xtovsiz taraqqiy etadi, o'sadi va rivojlanadi, chunki jamiytdagi o'zgarishlar natijasida yuz beradi, yangi paaydo bo'ladigan atamalar, narsa-hodisalar uchun tilda atamalar paydo bo'lishiga olib keladi. Natijada tild yangi leksemalar, leksemalardan so'ng frazeologik birliklarning paydo bo'lishiga olib keladi. Tilning lug'at boyligi ham ortib boraveradi.

Demak, frazeologizmlarning shakllanishi turli xil yo'llar bilan amalga oshiriladi. O'sha tilda gapiruvchi millat vakillari yoki biror bir holat, yoki hodisani ifodalash yoki xarakterlash uchun bir holatni ikkinchi bir holatga ko'chirish natijasida obrazli iboralar shakllanadi.

Leksemaning shakllanish xususiyati frazeologizmning shakllanish xususiyatiga o'xshamaydi. Frazeologizmlarning shakllanishi turli xil davrlarda sodir bo'ladi, sodir bo'lishida ijtimoiy holat, hayotiy voqealar, tasavvurlar, hayotiy tajribalarning umumiy lashuvi asosida ro'y beradi.

Masalan, *nazar* leksemasini olsak, bu leksema vositasida kishilarning nigohi bilan bog'liq frazeologizmlar yuzaga kelgan. Masalan: *nazarga ilmaslik, nazarga olmoq, nazariga kirmoq, nazatiga tushmoq, nazaridan qolmoq, nazaridan qochmoq, nazar solmoq, nazari past kabi*. Frazeologizmlarning ifodalanishida salbiy yoki ijobiy ma'nosi, bo'yoqdorlilik darajasi leksemaga nisbatan tezroq va osonroq tasavvur hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologiyasi Toshkent 2019 10-bet.
2. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologiyasi Toshkent 2019 12-bet.
3. X. Xayrullayev. Tilshunoslik nazariyasi. Darslik. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 82 bet.